
FARG'ONA SHAHAR MAHALLIY BYUDJETI TO'G'RSIDA



Farg'ona shahar mahalliy byudjetining 2021 yil boshiga qolgan erkin qoldiq mablag'lari **1282.0 mln. so'm miqdorida** shakllangan.

Mazkur shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlashga, hukumat qaror va bayonlarida ko'zda tutilgan dasturlar hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga yo'naltirildi.

shundan:

- Shahar hokimligi binosini mukammal ta'mirlash xarajatlari uchun 300.0 mln.so'm;
- Farg'ona shahrining markaziy ko'cha va xiyobonlarini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlaridan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun 600.0 mln.so'm,
- shahar hokimligi va moliya bo'limi xodimlarini ish samaradorligi va mas'uliyatini oshirish, moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida korrupsiyaviy muxitni shakllanishini oldini olish maqsadida 188.0 mln.so'm;
- Kengash kotibiyatini moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash xarajatlari uchun 31.0 mln.so'm;
- MFYlarni kommunal to'lovlardan bo'lgan kreditor qarzdorligini qoplash uchun 22.5 mln.so'm;

Xuddi shuningdek, 2021 yilning 6 oyi davomida shahar hokimining tegishli farmoyishlariga bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 11 oktyabrdagi "Davlat mulki ob'ektlarini va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tadbirkorlik sub'ektlariga sotish tartibini soddalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5552-sonli farmoyishining 9-bandiga asosan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga, shuningdek, davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashga **jami 2025.0 mln.so'm** mablag' yo'naltirildi.

Shundan:

- "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida moddiy yordam berish uchun 100.0 mln.so'm;
- shaharda olib borilayotgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bilan bog'liq xarajatlar uchun 225.0 mln.so'm;
- Tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi 5-sonli OP Oqariq bo'linmasini joriy ta'mirlash uchun 240.0 mln.so'm;
- "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan va kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida fuqarolarni yashab turgan uylarini ta'mirlash xarajatlari va moddiy yordam uchun 300.0 mln.so'm;
- shaharning markaziy ko'cha, xiyobonlar va piyodalar yo'laklarini muntazam ravishda tozalab turish, yig'ilgan chiqindilarni uzluksiz olish uchun Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasiga avtotransport vositalarini yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlash xarajatlari uchun 250.0 mln.so'm;
- "Shodiyona" mahallasi va aholi murojaatlariga ko'ra, hududda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish hamda xonadonlarga yer osti orqali tortilayotgan elektr tarmoqlarini o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar uchun 220.0 mln.so'm;

- jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan turar va noturar joylar buzilganligi sababli to'lanishi belgilangan kompensatsiya to'lovlari to'lash uchun 690.0 mln.so'm;

Farg'ona shahar mahalliy byudjetining 2021 yil I-chorak daromadlar rejasini ortiq bajarilgan qismi hisobidan birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlashga, hukumat qaror va bayonlarida ko'zda tutilgan dasturlar hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga **jami 5634.0 mln.so'm** yo'naltirildi.

shundan:

- "Ayollar daftari" jamg'armasiga **500,0** mln.so'm;

- "Yoshlar daftari" jamg'armasiga **500.0** mln.so'm;

- Aholi tomonidan eng ko'p ma'qullangan tadbirlarni moliyalashtirish uchun **605.0** mln.so'm;

- Farg'ona shahrida "Mahallabay, xonadonbay, ko'chabay" yurib hududlarni obodonlashtirish, aholi tomonidan kelib tushayotgan muammolarni hal etish maqsadida, shahardagi "Gulzor" MFY xududida veloyol va yugurish uchun yo'laklar tashkil etish va ta'mirlash hamda shahar infratuzilmasini yaxshilash, ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **600.0** mln.so'm;

- Farg'ona shahridagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari roli va mavqeini yanada oshirish, mustaqilligi hamda vakolatlarining amaliy samaradorligini ta'minlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun yuqori tezlikdagi internet tarmog'i va aloqa liniyasidan foydalanish uchun oylik (3 oy uchun) to'lovlarga hamda xodimlarning mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida mebel jixozlari bilan ta'minlash uchun **176.5** mln.so'm;

- Farg'ona shahrining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni yo'qlama (inventarizatsiya)dan o'tkazish hamda natijalari asosida yerlardan samarali va oqilona foydalanish bo'yicha bajarilgan ishlardan bo'lgan qarzdorlikni qisman qoplash uchun **93.5** mln.so'm;

- Farg'ona shahar Davlat soliq inspeksiyasi xodimlari ish samaradorligi va mas'uliyatini oshirish, xodimlarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida inspeksiyaning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun **100.0** mln.so'm;

- shahar hokimligi, Kengash kotibiyati hamda shahar Moliya bo'limi hodimlariga mart, aprel, may oylari uchun bir oylik lavozim maoshi (*qo'shimchalar bilan birga*) miqdorida qo'shimcha ustama haq to'lash uchun

501,7 mln.so'm;

- Farg'ona shahrining markaziy ko'chalari, hiyobonlar va chorahalariga ekilgan manzarali daraxtlar hamda Farg'ona shahrida "Yangi yil" uchun bayramini nishonlashda shaharning markaziy ko'chalarini rangli chiroqlar bilan bezash (dyuralayt lampalar, qor parchalari, dojdik va xakazo) bilan bog'liq xarajatlardan bo'lgan qarzdorliklarni qoplash uchun

820.0 mln.so'm;

- Farg'ona shahar "Al-Farg'oniy" va "Saylgox" ko'chalari kesishmasida qo'cha osma chiroqlari o'rnatish, A.Navoiy, Farg'ona shahrining markaziy ko'cha, xiyobonlar va piyodalar yo'laklarini muntazam ravishda tozalab turish, yig'ilgan chiqindilarni uzliksiz olish uchun Obodonlashtirish boshqarmasining avtotransport vositalarini yoqilg'i mahsulotlari bilan ta'minlash xarajatlariga, A.Navoiy va Quvasoy ko'chalarida amalga oshirilgan (*yonuvchi bezak gullar, dyuralayt chiroqlar va plafonlar o'rnatish, tarsherlarni buyoqlash ishlari va hakazo*) ishlar va xizmatlar uchun jami

374,0 mln.so'm;

- Shahar hokimligi balansidagi xizmat uylarini ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar uchun **250,0** mln.so'm;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashrifiga tayyorgarlik ko'rish doirasida amalga oshirilgan

xarajatlardan bo'lgan qarzdorliklarga, favqulotda vaziyatlarda va shunga o'xshash kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi talab etiladigan xarajatlar uchun **1079.3** mln.so'm;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072 sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirish va "Fuqarolar tashabussi jamg'armasi" mablag'larining shakllantirilishi hamda bu borada olib borilayotgan ishlar xususida qisqacha to'xtalib o'tsam.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 avgustdagi "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917 qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qarorning 6 bandida tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlari qo'shimcha manbalaridan kamida 10 foizining "Ochiq byudjet" axborot portalini orqali jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil

13 apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072 sonli qarorga asosan 2021 yil 1 iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar byudjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdorini 10 foizdan 30 foizga oshirish belgilangan.

Maxalliy byudjetning qo'shimcha manbaalarini 10 foizi miqdorini ya'ni, shahar hokimining 29,03,2021 y 68-F-sonli farmoyishi bilan (*erkin qoldiq*) 128,2 mln.so'm, 12,04,2021 yil 99-F-sonli farmoyishi bilan (*daromadlarni ortikcha bajarilgan qismi*) 605,0 mln.so'm xamda Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 13,04,2021 y PK-5072-sonli qaroriga asosan mahalliy byudjetning 5 foizi miqdori ya'ni 10394,0 mln.so'm ajratilgan bo'lib, ushbu mablaglar shahar xokimligida "Fuqarolar tashabussi jamg'armasi"maxsus 4017..... shaxsiy g'azna xisob varag'i ochilib, mablaglar ushbu xisob rakamiga o'tkazilgan.

"Ochiq byudjet" portalining yangi talqini ishga tushishi munosabati bilan, "Fuqarolar tashabussi" jamg'armasi mablaglarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha takliflar qabul qilish, ularni saralash hamda ovozga qo'yish bo'yicha yangi tartib amalga kiritildi.

Amaldagi yangi tartibga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni saralab olish va ularni moliyalashtirish 3 ta bosqichda amalga oshiriladi.

1 bosqich, Takliflarni qabul qilish;

2 bosqich, Takliflarni ko'rib chiqish;

3 bosqich, Ovoz berish;

4 bosqich, G'olibni tashlash;

Bugungi kunda, mazkur tartiblarga asosan 1 bosqich boshlangan va jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar uchun fuqarolar tomonidan "Ochiq byudjet" portalini orqali takliflar berish boshlangan.

Hozirda, "Ochiq byudjet" portalida viloyat bo'yicha fuqarolardan ichimlik suvi, yo'l qurilishi, ta'lim va tibbiyot muassasalarini ta'mirlash, obodonlashtirish hamda bollalar o'yingohi qurish kabi muammolar yechimi yuzasidan **17 tadan** oshiq takliflar kelib tushdi.

Misol uchun,

1. Farg'ona shahar fuqarosi Nurxon To'ychiyeva tomonidan Farg'ona shahar Registon ko'chasida joylashgan ko'p qavatli uylar atrofini obodonlashtirish hamda velo yo'laklar tashkil etish bo'yicha 950,0 mln.so'mlik taklif berilgan.

So'zimiz yakunida "Ochiq byudjet" portalini hamda u orqali fuqarolar o'zini qiynayotgan umumiy muammolar yechimi yuzasidan takliflar berish mumkinligi bo'yicha tashviqot ishlari olib borilayotganligini hamda deputatlarimizdan ushbu jarayonda faol qatnashishilaringizni so'rab qolaman.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-07-16 18:00:10